

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14434331>

GLOBALLASHUV JARAYONIDA MISSIONERLIKKA QARSHI KURASHDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNING O'ZIGA XOSLIGI

Tanimov Sharapatdin Maulenbergovich

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi

E-mail: sharapatdin8484@mail.ru

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada missionerlikga qarshi kurashning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining yangi ko'rinishlari haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada global miqiyosda xavfsizlik, barqarorlikka rahna solish maqsadida ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy-huquqiy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan missionerlikning g'oyaviy-mafkuraviy ko'rinishlari borasidagi fikrlar yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** transformatsiya, mafkuraviy interventsia, manipulyatsiya, ekspantsiya, terrorizm, tinchlik, xavfsizlik, barqarorlik, geosiyosat.*

***Аннотация.** В статье анализируются Моральные и нравственные ценности борьбы с миссионерством. Также в статье рассматриваются научно обоснованные взгляды, точка зрения, позиции специалистов касательно угрозы миссионерства на мирную ситуацию, политической, экономической и юридической стабильности страны.*

***Ключевые слова:** трансформация, идеологическое интервенция, манипуляция, экспанция, терроризм, мир, безопасность, стабильность, геополитика.*

Annotation. *The article analyzes the moral and moral values of the struggle against missionary. The article also examines scientifically based views, point of view, positions of specialists regarding the threat of missionary to a peaceful situation, political, economic and legal stability of the country.*

Key words: *transformation, ideological intervention, manipulation, impact, terrorism, peace, security, stability, geopolitics.*

Kirish. Globallashuv atamasi dunyo miqyosida bugungi kunda juda ko‘p qo‘llanilib barcha sohalarini qamrab olmoqda. Shu tariqa, jahonda kechayotgan jarayonlar XXI asrda globallashuv ko‘p jihatdan insoniyat taraqqiyot strategiyasini belgilab berishini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Globallashuv va uning qamrovini dunyoning barcha sohalarida ko‘rish mumkin. Ayniqsa, bugungi kunda globallashuv diniy sohaga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatayotganligini anglash qiyin emas. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda, “Diniy ekstremizm mafkurasi ommaviy ongga global axborot-kommunikatsiya tarmoqlari, jumladan, Internet, zamonaviy elektron dasturiy ta‘minotlari orqali kuchli axborot-psixologik bosim o‘tkazmoqda” (Mirziyoyev, 2021).

Insoniyat tarix davomida hamisha integratsiyaga, yagona siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy-madaniy makonning bir qismi bo‘lishga intilib kelgan. Dunyodagi uchta jahon dinlarining vujudga kelishi jahon makonining global integratsiyalashuvining yangi namunasini yaratdi. Yahudiylik, nasroniylik, so‘ngra islom voqeligini ijtimoiy-madaniy, siyosiy va iqtisodiy idrok etishda ta‘sir chegaralarini kengaytirib, asosan u yoki bu din vakillari yashaydigan joylarni yaratdilar. Shu o‘rinda quyida missionerlikning tarqalashiga sharoit yaratib berayotgan globallashuv hodisasini ma‘naviy-axloqiy va ijtimoiy-siyosiy jihatdan tahlil qilamiz.

Globallashuv bayrog‘i ostida dunyoni qaytadan isloh qilish, diniy nizolarni vujudga keltirish, diniy ekstremizmning o‘choqlarini ko‘paytirishga bo‘lgan intilish missionerlik targ‘ibotida jiddiy ko‘zga tashlanmoqda. Bugungi kunda dindan niqob

sifatida foydalanish, insonlarni qo‘rqitish, internet orqali yoshlar ongini egallash va ulardan foydalanish holatlari globallashuvning mahsuli desak aslo, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tanqidiy tahlili. Bugungi kunga kelib missionerlik nazariyasiga ko‘ra mafkuraviy tojavuzning yangi ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, XXI asrga kelib missionerlik harakatlari faoliyati kuchaygan mafkura poligonlari tobora ko‘paymoqda. Mazkur harakatlarni oldini olish va bartaraf etish hozirgi kunga kelib dunyo miqyosida ko‘pgina hududlarning dolzarb muammolari qatoriga kiradi.

Bu haqda fikr yuritganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 6 noyabr kuni *Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi* muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqida: Hozirgi vaqtda dunyoda turli kuchlar o‘rtasida qarama-qarshilik va ziddiyatlar kuchaymoqda, resurslar uchun shafqatsiz kurash ketmoqda. Mintaqamizdagi tinchlik va xavfsizlikka nisbatan yangi-yangi tahdidlar paydo bo‘lmoqda. O‘z-o‘zidan ravshanki, globallashuv va keskin raqobat zamoni, shiddat bilan o‘zgarayotgan hayot bizning oldimizga kechiktirib bo‘lmaydigan, o‘ta muhim va dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Mana shunday murakkab va qaltis vaziyatda barchamiz tinch va osoyishta hayotimizni asrash, milliy mustaqilligimizni mustahkamlash uchun yanada jiplashib, hushyor va ogoh bo‘lib, dadil va qat‘iy harakat qilishimiz zarur”ligini (Mirziyoyev, 2021) ta’kidlab o‘tgan edi. Binobarin, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi sharoitida g‘oyaviy va mafkuraviy kurashning kuchayishi millat yoki xalqlar tarixiy qadriyatlarini, bugungi hayoti va kelajakdagi taqdiri mavqeini belgilashda muhim omil vazifasini o‘taydi.

Globallashuv davrida ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy-huquqiy tahdid sifatida namoyon bo‘layotgan missionerlik mafkuraviy tojavuzning nozik va nisbatan arzon shaklida allaqachon ayrim davlatlar amaliyotiga aylanib bo‘ldi. Ayniqsa, dunyo miqyosida keskin g‘oyaviy kurashlarning avj olishi, turli mafkuralar to‘qnashuvi, demokratiya yoki turli diniy ta’limotlar shiorlari bilan “chiroyli” niqoblangan yovuz

g'oyalarni singdirishga intilish missionerlik ko'rinishida tobora kuchayib bormoqda. Bugun missionerlik ba'zi geosiyosiy kuchlarning xavfli quroli bo'lib, siyosiy va iqtisodiy ta'sir doirasi ko'rinishida ifodalanayotgan zamonaviy mustamlakachilik yoki vassallikni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Ayrim" siyosiy doiralar o'zlarining geosiyosiy maqsadlarini ko'zlab, nizo va kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishda aynan, missionerlik harakatlaridan bevosita foydalanishmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Missionerlik ma'naviy-mafkuraviy tahdid sifatida, inson ongi va qalbini zabt etishda asosiy qurol bo'lib xizmat qilmoqda. "Missionerlarning asosiy maqsadi qaysidir dinni targ'ib qilish yoki qaysidir dinni kuchsizlantirish emas, balki sizni biz yashab turgan yurtning tinchligiga raxna solish va taraqqiyotini barbod qilishdir. Ma'lumki, missionerlar xuddi shu yo'l bilan bir necha davlatlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini izdan chiqardilar. Oqibatda aholining asrlar osha shakllanib kelgan milliy va diniy qadriyatlari oyoqosti bo'lishiga va nihoyat, yo'qolib ketishiga olib keldi"(Yahyo, 2016).

Ayniqsa, missionerlar bugungi kunda turli xil usullardan foydalanishini kuzatish mumkin. Masalan, bizning yurtimizga missionerlar "... til o'rgatish, kompyuter o'rgatish, har xil sohalar bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash va boshqa ishlar uchun turli-tuman o'quv markazlari tashkil etish yoki bo'lmasa, har xil yo'nalishlarda xayriya ishlari bilan shug'ullanadigan tashkilotlar qiyofasida kirib kelishdi"(Otamuradov, 2015). Zero, bugungi kunda xristian dinining jahon dinlari ichida birinchi o'ringa chiqishida missionerlar tomonidan qo'llagan usullarning xilma-xilligi sabab bo'ldi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda missionerlik zamirida juda katta xavf yashirinib, g'oyaviy kurash tobora yangi qiyofaga kirdi. Bu kabi holatlar milliy nigilizm ("nigilizm" lotincha nihil – "hech nima" – o'zining yoki yurtining kuch-qudratiga ishonmaslik, ularga past baho berish, ertangi kunga ishonchsizlik, umidsizlik) ya'ni, muayyan millat vakillarining o'z millati imkoniyatlarini kamsitib, pasaytirib baholashi, o'z yurtining qadriga yetmaslik, mamlakatda ro'y berayotgan o'zgarishlar miqyosini anglay olmaslik holatlarining vujudga kelishiga olib keladi.

Milliy nigilizm kasaliga yo‘liqqan yoshlarning mafkuraviy immuniteti zaif bo‘lib, ular begona g‘oyaviy ta’sirlarga tez beriluvchan, o‘z yurtining manfaatini himoya qila olmaydigan o‘z yurtining har qanday yutug‘iga nisbatan befarq va ularni negativ baholovchi, “qildan qiyiq axtaruvchi” nochor kimsalarga aylanib qolishadi.

Darhaqiqat, dunyo voqealariga nazar soladigan bo‘lsak, missionerlar faoliyati har doim mintaqa barqarorligini buzib, o‘zga din vakillari orasida notinchlik, qon to‘kilish, beqarorlikni yuzaga keltirmoqda. Shuni alohida qayd etish lozimki, missionerlar juda ayyor, ko‘pni ko‘rgan, ishbilarmonlar bo‘lib, ular o‘zlarini sodda kishilardek tutadi va hech qachon davlat idoralaridan ish rejasi va nizomini ro‘yxatdan o‘tkazishni so‘ramaydi. Ular avvalo vaziyatni, kishilarni, amaldorlarni, ularga yaqinlashish yo‘llarini yaxshilab o‘rganib, asta-sekin insoniy yordam, tibbiy xizmat, xayr-ehson kabilardan gap ochadi va qo‘lidan ish keladiganlarga “sovg‘a salomlar” uyushtirib, oxir-oqibat ularning ko‘ngliga yo‘l topadi va o‘z maqsadlarini amalga oshirishga o‘tadi. Masalan, xristian dini oqimlaridan “Iyegova shohidlari”, “Evangelistlar”, “Adventistlar”, “Baptistlar” va boshqa ko‘plab katta-kichik cherkov vakillari o‘zlarining “samarali” ovlari uchun yurtimizdan o‘lja izlamoqda.

Tadqiqot natijalarining muhokamasi. Missioner – biror diniy tashkilot tomonidan o‘z diniga targ‘ib qilish uchun muayyan hududga yuborilgan shaxs sifatida o‘ziga singdirilgan diniy qarashlarni tar-qatish, ular vositasida zimmasiga yuklangan o‘zi bilib-bilmagan maxsus vazifalarni amalga oshiruvchi shaxsdir (Musaev, 2021). Rivojlangan davlatlar missionerlik tashkilotlari orqali xorijiy davlatlardagi ichki “iqtisodiy muammolar”ni bartaraf etishda bevosita ishtirok etishadi. Missionerlik strategiyasida fuqarolarni jamiyat va davlat miqyosidagi “iqtisodiy muammolar”ni bartaraf etishda ishtirok etishiga alohida e’tibor qaratiladi. Bunda missionerlar moddiy va moliyaviy yordam ko‘rsatishning turli xil usullaridan ustalik bilan foydalanishmoqda. Ushbu rejlarini amalga oshirishda “mehribonlik uylari”, “ko‘zi ojizlar jamiyati”, “qariyalar uylari”ga “beg‘araz” xayriya yordami ko‘rsatayotganligi ular amaliyotining oshkora ko‘rinishlaridir. Bu haqda AQSh prezidenti Taft esa XX asr boshlarida missionerlik jamiyatining episkoplik cherkovi yig‘ilishlaridan birida:

«Siz missionerlarni Sharq tsivilizatsiyasi ruhi bilan tayyorlang. Missioner rahbarlari nafaqat episkop yoki pastor, balki ular davlat arboblari hamdir», - deya ta'kidlaydi" (Brown, 1921),-degan edi. Missionerlarning ruxoniylik maqomi doimiy ravishda davlat va siyosiy doira vakillarini muhim topshiriq va vazifalarini bajarishda asosiy o'rin tutgan. Shu tarzda xristian missionerlari Osiyo, Afrika va Amerika mintaqasida o'z faoliyatlari bilan o'zlari mansub davlatlarining siyosatini o'tkazishda asosiy rolni bajarishgan edi.

Missionerlik harakatlari ayrim mamlakatlardagi davlat suverenteti, konstitutsion tuzumga qilinayotgan tajovuzlarni mafkuraviy qo'llab quvvatlash va ta'minlashda o'z aksini topayotganligi ayniqsa tashvishlidir. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov qayd etganidek: "ming afsuski, bu kuchlarning asl qiyofasi, maqsad-muddaolari va imkoniyatlarini to'la va aniq-ravshan tasavvur qilish oson emas. Nega deganda, ular ko'pincha turli niqoblar, jozibali shior va g'oyalar pardasi ostida ish ko'radi. Bunday kuchlarning ixtiyorida juda katta moddiy, moliyaviy resurslar va imkoniyatlar mavjud bo'lib, ularning puxta o'ylagan, uzoq va davomli yovuz maqsadlariga xizmat qilmoqda" (Karimov, 2008),- deya ta'kidlagani bejiz emas. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, hozirgi zamonda missionerlik va prozelitizm sababli muayyan hudud va mintaqalarda katta moddiy va ma'naviy yo'qotishlar yuz bermoqda.

Hozirgi davrda ayrim taraqqiy etgan davlatlar geosiyosiy va iqtisodiy manfaat va maqsadlarni ko'zlagan holda demokratik o'zgarishlar jarayonini tezlashtirish zaruriyatini ro'kach qilib, rivojlanayotgan mamlakatlar ichki ishlariga aralashishga, ba'zan ochiq-oshkora, ba'zan esa turli nohukumat tashkilotlar orqali tazyiq o'tkazishga astoydil kirishganligi namoyon bo'lmoqda. Bu hol turli davlatlardagi bir xil voqea-hodisalarga ikki xil andozalar bilan yondashish, asossiz ma'lumotlarga tayanib, demokratik tuzumni majburan, kuch bilan o'rnatishga intilish, konstitutsiyaviy tuzumga qarshi terrorchilik xurujini amalga oshirgan ashaddiy jinoyatchilarni o'z huquqlari uchun kurashayotgan "tinch aholi" deb atashlarda oydinlashamoqda (Xaydaraliev, 2012).

Buyuk Britaniya Birlashgan Qirolligining mustamlakachilik xizmatining yirik arboblari orasida missionerlik imperiya uchun muhim ekanligi to'g'risidagi fikrlar mavjud bo'lgan. Aksariyat gegemon davlatlar missionerlikni davlatning siyosiy rejalarini amalga oshirishda davlatlarning ittifoqdosh hamkori sifatida e'tirof etishgan. Xususan, missionerlikning katta ahamiyatga ega ekanligini nafaqat siyosat arboblari, balki missionerlarning o'zi ham buni ta'kidlashgan.

Amerikalik tadqiqotchi Artur Braun o'zining 1921 yilda yozgan «Uzoq Sharqdagi hukmronlik» kitobida: «Biz Uzoq Sharqdagi asosiy siyosiy ta'sir kuchlarni ko'zdan kechirganimizda o'z xususiyat va ko'rsatkichlari bilan ancha ahamiyatliroq bo'lgan bir kuchga duch keldik. Barcha kuchlardan ta'sirliroq bo'lgan bu kuch xristian missiyasidir. Chunki boshqa kuchlar tashqi siyosiy o'zgarishlarni yuzaga keltirsa, missionerlik ichki tomondan katta ijtimoiy, siyosiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi» (Brown, 1921) - deb ta'kidlaydi.

Shunday qilib, turli xil ko'rinishdagi missionerlik harakatlari asrlar davomida mustamlakachilarga Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi hududlarini egallashda, mahalliy xalqni ijtimoiy qarashlarini o'zgartirib boshqa davlatlar siyosatiga bo'ysundirishda katta yordamchi bo'ldi. Bugungi kunga kelib geosiyosiy kuchlar muvozanatining tobora o'zgarishi, ayrim rivojlangan davlatlarning o'z demokratiyasini "eksport" qilish orqali dunyoga hukmronlik qilish maqsadi bilan chambarchas bog'lanib ketgan.

Yaqin Sharq mintaqasiga, jumladan, arab mamlakatlariga o'z ta'sirini o'tkazishga urinayotgan kuchlar o'rtasidagi geosiyosiy raqobatning kuchayishi ular mustaqilligiga tahdidlarning yangi turlari sifatida namoyon bo'layotganini ko'rsatadi. Bunday harakatlar Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, jumladan, ayrim arab va Markaziy Osiy davlatlarining geosiyosiy va geostrategik ahamiyati ortib borayotgani, ulkan tabiiy-iqtisodiy va boshqa resurs salohiyatiga egaligi ular xavfsizlik va barqarorlikka tahdid va xatarlar saqlanib qolayotgan mintaqalar sifatida hamon jahon hamjamiyati diqqat markazida turganligini ham anglatadi (Paxrutdinov, 1999). Vaholanki, missionerlik harakatlari mohiyatida "inson huquqlari", "vijdon erkinligi", "demokratik erkinliklar"ni olg'a surish uchun ko'rsatilayotgan "ko'mak" aslida mamlakatni

parokandalik sari siyosiy boshboshdoqlikka etaklayotganligi bilan yaqqol namoyon bo'lmoqda. Missionerlik orqali amalga oshirilayotgan "Demokratiya" niqobidagi urinishlar mana shunday noxushliklarni keltirib chiqarishi mumkinligini anglash barchadan jiddiy fikrlashni taqozo etadi.

Bugungi kunda globallashuv sharoitida dunyo miqyosida diniy nifoq solish orqali tinchlik va barqarorlikka tahdid solishga intilayotgan missionerlikka qarshi kurashda yoshlarimizni Milliy Vatanparvarlik g'oyalariga sodiq etib tarbiyalashni bugungi zamon talab etmoqda. Ayniqsa, bu borada yurtdoshlarimizni missionerlikni oldini olishda eng avvalo, loqaydlik, xudbinlik kabi salbiy holatlardan ogoh bo'lishni talab etadi. Bu borada barcha yurtdoshlarimiz bir maqsad sari Vatanimiz kelajagi hisoblanmish farzandlarimizni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligiga erishishdek oliy maqsadlarimiz ruhida tarbiyalashimiz to'g'risida jiddiy talablarni qo'yimoqda. Xususan, bugungi kunda yoshlarimiz ongi va qalbiga buyuk ma'naviyatimizni singdirish orqali sog'lom dunyoqarashni shakllantirish orqali chetdan juda katta ma'naviy huruj sifatida namoyon bo'layotgan missionerlik ta'sirlarga ham qarshi tura oladigan barkamol insonlar sifatida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, bugungi kunda globallashuvning shiddatli tus olishi dunyoda keskin g'oyaviy kurashlar, turli mafkuralar to'qnashuvlar jarayonida demokratiya yoki turli diniy ta'limotlar shiorlarini o'zida namoyon etuvchi yovuz g'oyalarni singdirishga bo'lgan intilish tobora kuchayib bormoqda. Zero, missionerlik tarafdorlari tomonidan ilgari surilayotgan demokratiya niqobidagi balandparvoz targ'ibot va tashviqotlar bizning milliy mentalitetimizga mutloq to'g'ri kelmasligini bemalol aytishga to'la haqlimiz. Missionerlik tarafdorlarining asosiy maqsadi yoshlarimizni milliy zamindan, azaliy qadriyat – ma'naviyatimizdan judo qilish orqali manqurtga aylantirish kabi illatlarini maqsad qilayotganligi tashvishlidir. Shuni e'tiborga olgan holda xalqimiz, millatimizni turli soxta va zararli g'oyalar ta'siridan asrashda eng avvalo, o'z qadriyatlarimizni e'zozlash orqali belgilangan maqsad va vazifalarimizga erishamiz.

Xulosa va takliflar. Yuqorida bildirib o‘tgan fikrlardan xulosa qilib aytsak, missionerlikning ta’qiqlanishi ham siyosiy, ham ma’naviy, ham ijtimoiy sabab hamda omillarga asoslangan bo‘lib, maqsadimiz yurtimizda xukm surayotgan barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash orqali Yurtimiz mustaqilligimizni mustahkamlashdir. O‘z navbatida, missionerlik tahdidini bartaraf etishda eng avvalo, hukumatimiz tomonidan missionerlikka oid ilmiy-ma’rifiy manbalar xamda muommaning amaliyotdagi holatini o‘rganish orqali ilmiy tajribalar asosida aholining keng qatlamlarini ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarini shakllantirishning nazariy-amaliy asoslarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Missionerlik tahdidlaridan doimo oqox bo‘lish, mazkur harkatlarni o‘z vaqtida anglash va ularni bartaraf etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bunday keng ko‘lamli o‘ta muhim masalalarni hal qilishda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan olib borilayotgan tajribalari asosida missionerlik xarakterini bartaraf etishda, avvalo, oila, ta’lim soxasi va jamoat tashkilotlarini ma’naviy – ma’rifiy qadriyatlarini shakllantirish mamlakatimizda jamiyatimizning barcha qatlamlarini missionerlik tahdidiga karshi g‘oyaviy – mafkuraviy qurollantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xulosa qilib aytganda Bugungi kunda jahonda keng quloch yozgan va inson ma’naviyatini buzishga qaratilgan tahdid bu Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta’lim-tarbiyasiga har birimiz mas’ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak” (Mirziyoyev, 2017),- deya alohida ta’kidlab o‘tgani bejiz emas. Zero yosh mamlakatimizda missionerlik tahdidlarni oldini olish, uni bartaraf etish orqali tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik, totuvlik, millatlararo hamjihatlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishini har bir Vatandoshimiz anglashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзаёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи нашри. – Тошкент: O‘zbekiston. 2021. – Б. 329.
2. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi. 6 noyabr 2021 yil*
3. Амин Яҳё М. Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2016. – Б. 28.
4. Отамуродов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. – Тошкент: — “Ўзбекистон” НМИУ, 2015. – Б. 298.
5. Musaev M. Missionerlik va prozelitizmning jamiyat barqarorligiga tahdidi. Monografiya. T., “Mumtoz so‘z”. 2021. – B. 17.
6. Brown A.J. The mastery of the Far East. - New York:1921. p. 471.
7. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – T., “Ma’naviyat”. 2008. – B. 12-13.
8. Xaydaraliev Shuxrat Abdulazizovich. Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda xalqaro tashkilotlar va O‘zbekistonning o‘rni (1991-2010 yillar). t.f.d. ilmiy darajasi uchun yozilgan dis. 07.00.01. Namangan.: 2012. B-125.
9. Brown A.J. The mastery of the Far East. p. 469
10. Paxrutdinov Sh. Mustaqillik va jamiyat taraqqiyotiga tahdid muammoasi. (siyosiy tahlil tajribasi) S.f.n. ilmiy darajasi uchun yozilgan dis. 23.00.02. T.: 1999
11. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. -Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. - 89 b.